


**Farg'ona viloyatining
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-sentabr)

2019 yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 1037,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 %ga kamaygan. Shu jumladan, eksport hajmi 436,1 mln. AQSh dollarga (111,5 %ga o'sgan) va import hajmi 601,1 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 89,3 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 165,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


***Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)**



* tezkor ma'lumot

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning
eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning sentabr oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	291,6	79,9	211,7	28,1
Rossiya	198,4	100,2	98,2	19,1
Qozog'iston	122,4	40,5	81,9	11,8
Qirg'iziston	120,5	89,1	31,4	11,6
Turkiya	77,8	45,0	32,8	7,5
Tojikiston	29,7	9,8	19,9	2,9
Germaniya	20,5	0,5	20,0	1,9
Koreya Respublikasi	22,5	4,2	18,3	2,2
Polsha	19	13,3	5,7	1,8
Latviya	15,2	0,7	14,5	1,5

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Ukraina	9,6	6,2	3,4	0,9
Misr	9,5	9,1	0,4	0,9
Litva	9,4	0,3	9,1	0,9
Yaponiya	9	0,3	8,7	0,9
Bangladesh	8,1	8,1	0,0	0,8
Afg'oniston	8,1	8,1	0,0	0,8
Belgiya	2,4	2,0	0,4	0,3
Italiya	3,7	0,4	3,3	0,4
Turkmaniston	6,0	0,7	5,3	0,6
Eron	1,4	0,3	1,1	0,1
Belarusiya	3,3	1,4	1,9	0,3
Vetnam	4,18	4,1	0,08	0,4
Xindiston	3,1	0,2	2,9	0,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,3 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 118,7% ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar- sentabr oylarida o'tgan yil shu davrga nisbatan 103,2% oshgan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 52,7 ga yetdi.

EKSPORT.

2019 yil yanvar yanvar-sentabr oylarida eksport hajmi 436,1 mln. AQSh dollarga (2018 yilning shu davriga nisbatan 111,5 % ga o'sgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (43,0%), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,8%), kimyo




mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,4 %), qora va rangli metallar (0,1%), mashina va uskynalar (0,1%),shuningdek xizmatlar eksporti (1,8 %) va boshqalar (50,8%) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(mln.AQSh dollari)


2018 yil (yanvar-sentabr)

2019 yil (yanvar-sentabr)



Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	436,1	111,5	100,0	248,6	118,7	100,0	187,5	103,2	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	187,6	145,8	43,0	167,7	137,3	67,4	19,9	3 M	10,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,9	81,6	0,4	1,8	88,1	0,7	0,04	20,9	0,0
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	16,7	79,6	3,8	8,7	80,8	3,5	8,0	78,5	4,3
Qora va rangli metallar	0,4	16,6 M	0,1	0,4	16,5M	0,2	0,0	100	0,0
Mashina va asbob - uskunarlar	0,5	94,0	0,1	0,4	74,6	0,2	0,1	7,3M	0,1
Xizmatlar	7,9	134,1	1,8	4,5	107,1	1,8	3,4	2 M	1,8
Boshqalar	221,1	95,4	50,7	65,1	93,4	26,2	156,0	96,3	83,2


Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan, %)


Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 111,5 % ga oshgan.


Xizmatlar eksporti hajmi 7,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,8% tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

2018-2019 yanvar-sentabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti
(mln. AQSh dollari)



Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-sentabr)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 50,8 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	98,6	100,2	25,2	23,0	1	1
Qirg'iziston	32,4	89,2	8,3	20,4	4	2
Xitoy	86,6	79,9	22,1	18,3	2	3
Turkiya	24,6	45,0	6,3	10,3	5	4
Qozog'iston	65,8	40,5	16,8	9,3	3	5
Polsha	15,4	13,3	3,9	3,0	6	6
Tojikiston	5,3	9,8	1,3	2,3	8	7
Misr	1,6	9,1	0,4	2,1	9	8
Bangladesh	14,2	8,1	3,6	1,8	7	9
Ukraina	3,4	6,1	0,9	1,4	13	10
Afg'oniston	3,8	8,1	1,0	1,8	12	11
Vetnam	4,5	4,1	1,1	0,9	11	12
Koreya Respublikasi	4,7	4,2	1,2	1,0	10	13
Belgiya	1,6	2,0	0,4	0,5	15	14
Marokko	0,9	1,9	0,2	0,5	16	15
Belorys	2,4	1,4	0,6	0,3	14	16

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi
(yanvar-sentabr)**

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Respublikasi		Qirg'iziston Respublikasi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Jami eksport	98,6	100,2	32,5	89,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	38,1	46,1	23,5	80,8
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,03	0,004	1,4	1,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	2,3	3,9	1,5
Qora va rangli metallar	-	0,1	0,01	0,0
Mashina va uskunalar	0,4	0,3	0,09	0,03
Xizmatlar	4,2	0,4	0,03	0,1
Boshqalar	55,9	46,9	3,5	5,5

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida jami 184,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 168,7 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 133,0% ko'paygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 64,3 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 43,9 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,2 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 93,5 ming tonna meva va rezavorlar 94,5 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,3 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 168,7 mln .AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 martaga ko'paygan.).

Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2018 yil yanvar-sentabr			2019 yil yanvar- sentabr		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
 Qozog'iston	49,7	58,2	0,05	59,3	35,8	0,02
 Rossiya	51,1	37,6	0,03	70,1	45,5	0,03
 Qirg'iziston	23,3	23,3	0,02	42,3	79,6	0,05
 Tojikiston	0,3	2,2	0,0	0,5	0,5	0,0
 Ukraina	1,6	1,0	0,0	7,7	3,0	0,0
 Xitoy	0,2	0,3	0,0	0,3	1,3	0,0

IMPORT

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 601,1 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 89,3%) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (39,6%), energiya manbalari va neft maxsulotlari (8,8%), oziq-ovqat mahsulotlari (9,1%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,4%), qora va rangli metall (10,4%), import xizmati (1,3%) hamda boshqalar (19,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(mln.AQSh dollari)
2019 йил
yanvar- sentabr

Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	601,1	89,3	100	242,2	60,3	100	358,9	132,3	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	54,6	98,7	9,1	43,4	101,7	17,9	11,1	88,4	3,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	68,5	125,4	11,4	17,6	115,2	7,3	50,9	129,4	14,2
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	53,1	22,7	8,8	52,9	22,6	21,8	0,3	71,6	0,1

Qora va rangli metallar	62,3	98,7	10,4	34,3	161,4	14,1	27,7	66,9	7,8
Mashina va asbob-uskunalar	238,1	151,3	39,6	7,7	90,4	3,2	230,3	154,8	64,2
Xizmatlar	7,9	169,6	1,3	0,7	3,9 m	0,3	7,2	160,7	2,0
Boshqalar	116,6	112,3	19,4	85,6	106,9	35,4	31,0	130,5	8,6

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 yilning mos davriga nisbatan 89,3% ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, %		O'рни	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy	161,3	211,7	24,0	35,2	2	1
Rossiya	194,1	98,2	28,9	16,3	1	2
Qozog'iston	154,7	81,9	23,0	13,6	3	3
Turkiya	16,9	32,8	2,5	5,5	7	4
Qirg'iziston	30,2	31,4	4,5	5,2	4	5
Germaniya	14,3	200,1	2,1	3,3	5	6
Tojikiston	7,2	19,9	1,1	3,3	11	7
Latviya	7,6	14,5	1,1	2,4	10	8
Koreya	15,1	18,3	2,2	3,0	8	9
Litva	3,9	9,1	0,6	1,5	15	10
Yaponiya	6,0	8,7	0,9	1,5	34	11
Polsha	1,1	5,6	0,2	0,9	23	12
Ukraina	3,9	3,4	0,6	0,6	18	13
Italiya	4,5	3,3	0,7	0,5	16	14
Turkmaniston	8,5	5,3	1,3	0,9	9	15
Hindiston	11,9	2,9	1,8	0,5	6	16
Eron	2,7	2,9	0,4	0,5	19	17
Tayvan	0,8	2,7	0,1	0,5	27	18
Niderlandiya	2,8	2,0	0,4	0,3	17	19
Belorus	2,0	1,9	0,3	0,3	21	20


Xizmatlar importi tarkibi, (%)
2019 yil yanvar-sentabr

Xizmatlar importi hajmi 7,9 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,3% ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(mln. AQSh dollari)


Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-sentabr davriga nisbatan 71,7 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 601,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi
Yanvar-sentabr 2019 yil
(mln. AQSh dollari)



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizga 63 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 11 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston, Germaniya va Korea Respublikasi, Latviya, Tojikiston Respublikasi, Litva, Yaponiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 546,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 92,2% ni tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-87-18